

O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDAGI OBRAZLAR TALQINI.

Urganch RANCH texnologiya universiteti talabasi
Ollayorova Feruza

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek adibi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi obrazlar talqini haqida fikr yuritish asar ma'naviyati, psixologik chuqurligi va ijtimoiy tahlilini hisobga olgan holda juda qiziqarli. Bu asar zamon va jamiyat tasviri orqali har bir obrazning o'ziga xos va ichki kurashini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Obrazlar, psixologik portret, ichki kurash, zamon va jamiyat, shaxsiy izlanishlar, o'zlikni anglash, yangi muhit, kuchli xarakterlar pafos.

Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlagan. Adib birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota -ona qalbini jarahatlaganin, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari-mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so'zlaydi. Tajribali yozuvchi raman hodisalarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undagi voqea hodisalar bayonida qatnashagan to'qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog'lagan.

"Ikki eshik orasi" romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlarni yoritib bergan. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro'-e'tibori, eng og'ir damlarda qiyinchiliklarini yengib o'tishga kuch topishi bilan o'quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan o'zbek qariyalariga o'xshab har bir ishda tashabbuskorlikini o'z qo'liga oladi. Shu bilan birga asarda Robiya ismli ayol qahramon ham mavjud.

Robiyaning ham taqdiri kulib boqmaydi. Yoshligidan onasidan yetim qolgan Robiya otasi tarbiyasida ulg'ayadi. Robiya sofdil, mehnatkash, irodali va chiroyli qiz bo'lib ulg'ayadi. U Kimsanga ko'ngil qo'yadi. Kimsan va Robiyaning sevgisi bir guli ochilmay so'ladi. Robiya o'zining tog'asi Shomurodga turmushga chiqadi.

Bu romanda ayollar obrazi ham zo'r mahorat bilan tasvirlangan. Ular orasida Qora amma o'ziga xos harakteri bilan ajralib turadi. Uning obrazida urish davridagi o'zbek onalarining siymosi mujassam topgan. "Ikki eshik orasi" dagi Orif oqsoqol,

Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlar o‘z qiyofasi bilan ajralib turadi.”Ikki eshik orasi”romanida insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo‘r mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi; uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga urg‘u beradi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning fazilatlarimardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini ko‘rsatadi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o‘rgangani uchun har bir epizod o‘quvchini ishontiradi; qalbiga jiddiy ta’sir qiladi. Asarda tasvirlanga hayot manzalalari insonlararo munosabatlar, ularning diologlari, shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Asarning... Ikki eshik orasi,, deb nomlanishi ham bejiz emas edi. Nega aynan ikki eshik orasi deb nomlanga. Asarda “-Odamzodyuz yil umr ko‘radimi, ming yilmi-baribir o‘lgisi kelmaydi. Ming yil yashagan bir sohoba”essiz essiz, u eshikdan kirdim u bu eshikdan chiqib ketyapman.” degan ekan. Shunaqa bolam hech kim o‘lishni o‘ylamaydi. Ammo xudo odamzodga umrni o‘lchab beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki O‘rkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi qahramonlar xatti -harakati turish- turmushi samimiyati, sadoqati mehr-muhabbati bilan zamonlar osha avlodlarimizga ibrat maktabi bo‘la oladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikki eshik orasi, O‘.Hoshimov,”Sharq nashriyoti”,2018
2. Hoshimov .O‘(2009). Sakkizinchi mo‘jiza. Toshkent.
3. O‘tkir Hoshimov.(2013).Ikki eshik orasi. Roman.
4. 10-sinf adabiyoti darsligi.